

O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ DOSTONLARINING AHAMIYATI

Payziyeva Nurjahon Abdurahmanovna

Namangan viloyati Chortoq tumani

54- maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lif - tarbiyaga asoslangan bo'lib, bunda xalq og'zaki ijodini o'quvchilarga o'rgatish, o'quvchi dunyoqarashiga, estetik tarbiyasiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Maqolada o'quvchiga bilim berish bilan birgalikda tarbiya berishni ham maqsad qilib oldik. Bu fikrlar o'quvchilarning xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri xalq dostonlarini o'qishga o'rgatish, uning inson ongiga ta'siri asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: folklor, folklorshunoslik, xalq dostonlari, mutolaa zavqi, ta'limiylar, tarbiyaviy dunyoqarash, estetik tarbiya

O'zbek xalq badiiy ijodi o'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tamonidan yaratilgan madaniy merosi latifalar, Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat.

Xalq og'zaki ijodining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turkiy xalqlarning mifik dunyoqarashiga borib taqaladi. Mazkur mifik qarashlari O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, "O'g'uznomalar", "Kitobi dada Qo'tqut", Mahmud Koshg'ariy tuzgan "Devonu lug'atit-turk", Ahmad Yuknakiyning "Hibatul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi adabiy asarlarda ham o'z ifodasini topgan.²⁸

Xalqimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqining tarixiy va qimmatli madaniy merosidir. Ayni kunlarda o'rganish va asrab-avaylash qayta-qayta ta'kidlanayotgan xalq qadriyatlari tarkibida xalq og'zaki ijodi ham mavjuddir. Xususan, "To'maris", "Shiroq" kabi afsonalar, "Alpomish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Ravshan", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi dostonlar, "Bulbuligo'yo", "Malikai Husnobod", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklar, lirik qo'shiqlar, marosim va mehnat qo'shiqlari hamda boshqa og'zaki ijod namunalari xalqimiz qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.²⁹

²⁸ Sulaymonov M., O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan nashriyoti-2012-yil 6-b

²⁹ Madayev O., Sobitova T., Xalq og'zaki poetic ijodi. Akademik litseylar uchun darslik.-T.: "Sharq" NMAK, 2010.6-12-betlar

Bugungi kunda ma'lum bo'layaptiki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta'sir qilmasdan samaraga erishib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodidan biri xalq dostonlarni o'qitish yosh avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, "Alpomish" dostonidan Alpomishning soddaligi va ishonuvchanligidan foydalangan dushman uni va sheriklarini tuzoqqa tushiradi. Qahramonning bir kun may ichib hushyorligini yoqotishidir 7 yil zindonda yotishiga sabab bo'ladi. Yoki dostonda aka-uka Boybo'ri va Boysarining murosasizligi tufayli o'n minglab qo'ng'irotliklarning boshiga mislsiz ko'rgiliklar tushadi. Bundan misol bo'ladiki, dono xalqimiz psixologiya fanining zamonaviy yutuqlaridan bexabar holda yoshlarni tarbiyalashda eng ma'qul yo'lni tanlagan ekan. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi soha folklorshunoslik deyiladi. Bu sohani o'rganuvchi olimlar ham alohida izlanishlar olib borganlar. Bu izlanishlarda xalq og'zaki ijodini insonga tarbiyasi haqida ham alohida fikr yuritilgan. Bevosita yosh bolalarning tarbiyasiga oid masalalar ham xalq og'zaki ijodi namunalaridan sezilarli o'rinni o'rgan. Xalq dostonlaridan yana biri "Ravshanxon" bo'lib u ham insonlarni o'z so'zida qat'iy turishi, muhabbatlari uchun jonini fido qilishi haqida so'z yuritiladi.

Xalq og'zaki ijodi va xalq pedagogikasining aloqasi haqida maxsus fikr yurtilar ekan o'rganilayotgan asarning ma'rifiy ahamiyatni ham e'tiborga olmoq maqsadga

muvofiqdir. Chunki xalq og'zaki ijodida katta o'rinni tutuvchi xalq dostonlari orqali yosh avlodga qadim zamonlarda quyosh, yer, suv ot, tuya, yo'lbars, baliq, qaldirg'och, behi, chinor kabi tushunsalarning muqaddasligi uqtirilgan³⁰. Shunidek, bunday asarlarda to'y, aza kabi marosimlar qanday o'tkazilishi haqida aniq ma'lumotlar berilgan.

Maktablarda xalq og'zaki ijodini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Yuqori sinf darsliklarida xalq dostonlari beriladi. Bular "Ravshanxon", "Kuntug'mish", "Rustamxon" kabilalar.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqida g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Xalq og'zaki ijodi o'quvchini topqirlikka, zukkolikka va so'zamollikka undaydi. Xalq dostonlaridagi qahramonlar xalq orzusidagi shaxslar bo'lib, ular insonlarning orzularini amalga oshiradigan shaxs sifatida qabul qilishgan.

³⁰ Sulaymonov M., O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan nashriyoti-2012-yil 6-bet

O'tmishda xalq orzusidagi hayot xalq dostonlarida ta'riflangan. Bu o'quvchiga yana-da zavq-shavq bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Madayev O., Sobitova T., Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik.-T.: "Sharq" NMAK, 2010- yil
2. Oz-oz o'r ganib dono bo'lur. Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Sulaymonov M., O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan nashriyoti-2012-yil
4. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmanova. Adabiyot.10-sinf. Toshkent. 2017-yil